

“ZARAR YETKAZISH” SEMALI QO’L HARAKATI FE’LLARINING LEKSIK-
SEMANTIK TAHLILI

Ozodaxon Abdusalomova Abduxalil qizi
Namangan davlat pedagogika instituti
tayanch doktoranti
E-mail: ozodaabdusalomova186@gmail.com
[Tel: +998501702972](tel:+998501702972)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21195686>

Annotatsiya. Maqolada “zarar yetkazish” semasi ostida paradigmatic munosabat hosil qiluvchi ayrim qo’l harakati fe’llarining leksik-semantik xususiyatlari haqida fikrlar bayon etildi. Tadqiqotda ushbu fe’llarning ma’no tarkibi, semantik differensial belgilari hamda o’zaro munosabatlari yoritilgan. Shuningdek, zarar yetkazish ma’nosini ifodalovchi qo’l harakati fe’llarining til tizimidagi o’rni va semantik guruhlanish tamoyillari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari o’zbek tilidagi harakat fe’llarining semantik tasnifini boyitishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar. Qo’l harakati fe’li, harakat, sinonim, leksema, uslubiy ma’no, ekspressiv ma’no, dialektal shakl, semantika.

Аннотация. В статье рассматриваются лексико-семантические особенности некоторых глаголов ручного действия, образующих парадигматические отношения на основе семы «нанесение вреда». В ходе исследования анализируются семантическая структура данных глаголов, их дифференциальные признаки и взаимосвязи. Кроме того, определяется место глаголов ручного действия, выражающих значение нанесения вреда, в языковой системе, а также выявляются принципы их семантической классификации. Результаты исследования способствуют обогащению семантической классификации глаголов действия в узбекском языке.

Ключевые слова: глагол ручного действия, действие, сема нанесения вреда, синонимия, лексема, стилистическое значение, экспрессивное значение, диалектная форма, семантика, лексико-семантическая группа.

Abstract. This article examines the lexical-semantic features of certain hand-action verbs that form paradigmatic relations on the basis of the seme “causing harm”. The study analyzes the semantic structure of these verbs, their differential semantic features, and their interrelationships. Furthermore, it identifies the place of hand-action verbs expressing the meaning of causing harm within the language system and determines the principles underlying their semantic classification. The findings contribute to the enrichment and refinement of the semantic classification of action verbs in the Uzbek language.

Keywords: hand-action verb, action, seme of causing harm, synonymy, lexeme, stylistic meaning, expressive meaning, dialectal form, semantics, lexical-semantic group.

Kirish. Fe’l so’z turkumi tilning eng muhim va sermahsul qatlamlaridan biri bo’lib, borliqdagi harakat, holat va jarayonlarni ifodalashga xizmat qiladi. Fe’llar ma’no xususiyatlari jihatidan, grammatik kategoriyalariga ko’ra va gapni tashkil etishda asosiy vazifani bajarishi nuqtayi nazaridan boshqa turkumlardan ajralib turadi [3: 108]. “Fe’l eng murakkab va eng keng sig’imli grammatik kategoriya” ekanini akademik V.V.Vinogradov ham alohida ta’kidlaydi [1: 349]. Fe’llar barcha tillarda insonning amaliy faoliyati, ijtimoiy

munosabatlari hamda voqelikni idrok etish jarayonlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgani sababli ularning semantik tarkibi nihoyatda rang-barangdir. Harakatning yo‘nalishi, bajarilish usuli, davomiyligi, natijasi va obyektga ta’siri kabi jihatlar fe’l semantikasining muhim tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

Bugungi kunda tilshunoslikda fe’llarni semantik, kognitiv va lingvomadaniy jihatdan o‘rganish dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, fe’l semantikasida harakat natijasining aks etishi, uning inson tafakkuridagi konseptual asoslari hamda nutqiy voqelanish mexanizmlarini tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan “zarar yetkazish” semali fe’llarning semantik xususiyatlari va lisoniy imkoniyatlarini o‘rganish fe’l semantikasini yanada chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Inson faoliyatining eng muhim vositalaridan biri bo‘lgan qo‘l turli amaliy harakatlarni bajarishda faol ishtirok etadi. Shu sababli qo‘l harakati bilan bog‘liq fe’llar o‘zbek tili leksikasida salmoqli o‘rin egallaydi.

Qo‘l harakati fe’llari tarkibida “zarar yetkazish” semasini ifodalovchi birliklar alohida guruhni tashkil etadi. Bunday fe’llar orqali shaxs yoki predmetga jismoniy ta’sir ko‘rsatish, unga shikast yetkazish, shaklini o‘zgartirish, buzish yoki yo‘q qilish kabi ma’nolar ifodalanadi. Bunday fe’llar sirasiga **bo‘g‘moq, mushtlamoq, mijig‘lamoq, tarsakilamoq, timdalamoq, tirnamoq, yulmoq, yumdalamoq, g‘ijimlamoq, shapaloqlamoq, chimdimiq, chimchilamoq** kabilarni kiritish mumkin. Mazkur fe’l leksemalar ifodalagan ma’no qo‘l va uning partativ birliklari xatti-harakatining ijrosi sifatida baholanadi. Quyida fe’llarning semantik xususiyatlari haqida to‘xtalamiz.

Bo‘g‘moq fe’lining “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da 1) qattiq qismoq, 2) nafas olishni qiyinlashtirmoq, 3) qattiq siqib bog‘lamoq, 4) g‘ov solib to‘smoq, 5) iskanjaga olib, tang ahvolga solmoq, 6) to‘sqinlik qilib o‘sishtan toxtatmoq, 7) ortiq darajada asabiylashtirmoq, 8) rangini xiralashtirmoq, 9) og‘irlashtirmoq, buzmoq kabi ma’nolarni ifodalashi qayd etilgan [4: I, 724-725]. Bo‘g‘moq fe’lining 1-va 3- ma’nolari qo‘lning real harakati natijasida sodir bo‘ladi. Ushbu fe’l ifodalagan ma’nosiga ko‘ra shaxs va predmetlarga nisbatan qo‘llaniladi. Biroq fe’lning birinchi ma’nosi ko‘pincha shaxsning barmoqlar yarim bukilgan holda bo‘yin yoki boshqa a’zoni aylana shaklida qamrab, ichkari tomon kuch bilan siqish harakati orqali “zarar yetkazish” semasini ifodalab keladi. *Misol: Cho‘pon dag‘dag‘ani boshlagandi hamki, Ma‘mur uni tomog‘idan bo‘g‘ib oldi.* (<https://gov.uz/oz/iiv/news/view/6172>)

Mushtlamoq yasama fe’li shaxs va predmet ifodalovchi leksemalar bilan sintaktik aloqaga kirishadi. Ushbu fe’l shaxsga nisbatan qo‘llanilganda “zarar yetkazish” semasini bildirib, qo‘l barmoqlarining musht holatida zarb berilishini ifodalaydi. *Misol: Chol ba‘zan juda kuyib ketgan vaqtlarida boshiga mushtlab: “Juvonmargga aza och, aza ocha qol” deb yig‘lardi.* (A. Qahhor, “Nurli cho‘qqilar”) **Mushtlamoq** fe’li yana bir o‘rinda predmetning shaklini o‘zgartirish, unga ishlov berish jarayonini nomlaydi. *Misol: Zumrad do‘ppidek xamirni qattiq-qattiq mushtlay boshladi.* (S.Siyoyev, “Otliq ayol”)

Mijig‘lamoq fe’li mijig‘lamoq, mijig‘moq so‘zlashuv tilida esa mijimoq shakllariga ega bo‘lib, ma’lum predmetni qo‘l kaftlari orasiga olib qattiq ezib, siqish harakatini bildiradi. Ushbu fe’l harakatning tez va oson bajarilishi ma’nosidagi “tashlamoq” ko‘makchi fe’li bilan birga qo‘llanib, shaxsga nisbatan qattiq jismoniy zarba berishni ifodalaydi. Birikma badiiy matnlarda ma’lum bir personajning boshqa bir qahramonga kuchli adovati, keki borligini ifodalash maqsadida ishlatiladi. *Misol: Komiljon Zunnunovga shu qadar tikilib qaradiki, iloji bo‘lsa, uni mijig‘lab tashlashga tayyor edi.* (I.Rahim, “Ixlos”)

G’ijimlamog fe’lining lug’atda mijg’ilamog so’zi bilan ayni ma’no ifodalashi qayd etilgan. Aytib o’tilganidek, mazkur fe’llar ko’pincha predmet bildiruvchi leksemalar bilan aloqaga kirishadi, shaxsga nisbatan qo’llanilganda esa salbiy ekspressiv ma’no anglashiladi.

Tarsakilamog yasama fe’li qo’lning ochiq kaftlari bilan biror shaxsning asosan yuziga va yoki tananing boshqa bir qismiga zarba berish harakatini bildiradi. *Misol: Shoikrom xotinini tarsakilab yubormaslik uchun yuzini o’girib, tishini g’ijirlatdi. (O’Hoshimov, “Urushning so’nggi qurboni”)* Mazkur fe’lnin *tarsaki tushirmog*, *tarsaki tortmog*, *tarsaki urmog* kabi analitik shakllari ham mavjud bo’lib, ma’no nozikligiga ko’ra biri ikkinchisidan farq qiladi. *Tarsakilamog* fe’li harakatning ketma-ket tarzda birdan ortiq bajarilishini ifodalasa, yuqoridagi shakllar xatti-harakatning bir marotaba yuz berganligini bildiradi. Shuningdek, ushbu analitik fe’l shakllari ham ichki ma’noviy xususiyatiga qarab o’zaro farqlanadi. *Tarsaki urmog* umumiy ma’noda harakatning amalga oshganligini bildirsa, *tarsaki tushirmog* harakat natijasiga urg’u beradi hamda uning kutilmaganda yoki keskin ravishda yuz berganligini ifodalaydi. *Tarsaki tortmogda* esa ekspressivlik kuchliroq bo’lib, harakat anchayin shiddat bilan amalga oshganligini anglatadi. “O’zbek tili sinonimlarining izohli lug’ati”da *tarsaki* so’ziga ma’nodosh sifatida *shapati* va *shapaloq* so’zlari keltirilgan [5: 228]. *Tarsaki* so’zi kitobiy bo’lsa, *shapaloq* so’zlashuv uslubiga xos, *shapati* esa dialektal shakl hisoblanadi. Ushbu so’zlarning fe’l shakllari ham mavjud bo’lib, so’zlashuvda keng qo’llanadi. “O’zbek tilining izohli lug’ati”da *shapatilamog* shaklining “p” tovushi ikkilantirilgan *shappatilamog* va so’zlashuv tiliga xos *shappalamog* ko’rinishlari ham keltirilgan bo’lib, harakatning nisbatan sekinroq bajarilishini ifodalaydi. [4: VI, 588]. *Misol: – Olib kelgan odamlaringiz savodli chiqib qoldi-ku, – dedi mezbonlardan biri Mirzoning yelkasiga shappalab. (A.Qahhor, “Mirzo”)*

Tirnamog fe’li tirnoqlar yoki o’tkir uchli buyum yordamida tilish harakatini ifodalaydi. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bu so’z **tir** fe’lidan - (i) **n** qo’shimchasi bilan yasalgan so’zga -a qo’shimchasini qo’shish orqali yasalgan [2: 341]. *Timdalamog* va *yumdalamog* leksemalari ham ayni shu ma’noni ifodalaydi va og’zaki nutqda nisbatan faol qo’llanadi. *Yumdalamog* har ikki fe’lga nisbatan harakatning kuchli va shiddatli tarzda ro’y berishini anglatadi. *Misol: Shirmonxon chorpo yadan sakrab tushib, Adolatning yuzini yumdalay ketdi (S.Zunnunova “Gulxan”)* Shu bilan birga, ushbu fe’llar shaxs va hayvonlarning harakatini nomlaydi. *Misol: Onasiga yuragi achishdi. Xayolida onasi sochlarini yulib, yuzlarini timdalab yig’lab turardi. (M.Ismoil, “Farg’ona tong otguncha”)* *Misol: Bolaginam, mushuk o’lgurning oldiga borma, yuzingni tirnab oladi. (O’Hoshimov, Dunyoning ishlari”)*

“O’zbek tilining izohli lug’ati”da *yulmog* so’zining bir necha ma’nolari keltirilib, bir o’rinda so’zning tirnash orqali jarohatlash, timdalash kabi ma’noni ifodalashi qayd etilgan [4: VI, 271]. *Yulqimog*, *yulqilamog* so’zlari ham *yulmog* fe’li ma’nosiga yaqin keladi, ammo stilistik jihatdan o’zaro farqlanadi.

Chindimog, **chimdilamog**, **chimchimoq**, **chimchilamog** fe’llari o’zaro sinonimik munosabat hosil qilib, tananing biror qismini yengilroq jazo sifatida barmog uchlari bilan qisib olish harakatini bildiradi. So’zlardan *chindimog* uslubiy betaraf hisoblansa, *chimdilamog* shevaga xos sanaladi, *chimchimoq* va *chimchilamog* shakllari esa badiiy matnlarda keng qo’llanadi. *Misol: Biqinimizni qitiqlab-qitiqlab, yumshoq joyimizdan chimchib-chimchib qo’yarmish. (Bahodir Qobul “Oq kamar”)* *Misol: Shunday buzruk allomalardan ham qolib ketgan gaplar bor ekanmi-a, — chimchilab olmoqchi bo’ldi u. (<https://nusratrahmat.blogspot.com/p/farzandga-ogitlar.html?m=1>)*

Xulosa. Tadqiqot natijasida zarar yetkazish semali fe’llar o’zbek tili fe’l leksikasining muhim qismini tashkil etishi aniqlandi. Ushbu fe’llar semantik jihatdan obyektga salbiy ta’sir ko’rsatish va zarar yetkazish ma’nosi atrofida birlashadi. Ularning uslubiy qo’llanishida ekspressivlik va ta’sirchanlik darajasi muhim o’rin tutadi. Shuningdek, mazkur fe’llarning yasaliş xususiyatlari hamda etimologik taraqqiyoti o’zbek tilining tarixiy va madaniy rivojlanish jarayonlari bilan chambarchas bog’liqligi kuzatildi. Bu esa “zarar yetkazish” semali qo’l harakati fe’llarining semantik, uslubiy va tarixiy-lisoniy jihatdan kompleks tadqiq etilishi zarurligini ko’rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. В.В. Русский язык. – Москва: Высшая школа, 1986. – 640 с.
2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар) – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 600.
3. Саидхонов М. Ишораларнинг вербаллашуви ва матний хусусиятлари. Монография. – Тошкент: Tamaddun, 2022. – Б. 232.
4. O’zbek tilining izohli lug’ati. VI jildlik. I va VI jildlar. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 964, 864.
5. Хожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – Б. 308.

Foydalanilgan internet manbalar

1. <https://gov.uz/oz/iiv/news/view/6172>
2. <https://nusratrahmat.blogspot.com/p/farzandga-ogitlar.html?m=1>